



UDK: 811

Shahriniso SODIQOVA,

Toshkent davlat tibbiyot akademiyasi ingliz tili o‘qituvchisi, O‘zMU mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: shahrinisodikova@mail.com

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti PhD, katta o‘qituvchisi, D.F.G‘aybullayeva taqrizi asosida

RANG KOMPONENTLI FRAZEOLGIK BIRLIKLARNING PRAGMATIK ASPEKTD A O‘RGANILISH MASALALARI

Аnnотatsiya

Ushbu maqolada rang komponentli frazeologik birliklarning semantik, stilistik va pragmatik aspektlari o‘zaro tahlil qilinadi. Ranglar anglatadigan milliy – madaniy mazmun, ularning nutqdagi emotsional ta’siri hamda kommunikativ vazifalari yoritiladi. Pragmalinistik nuqtai nazardan esa rangga oid idiomalarning konnotativ ma’nosi, ijtimoiy - madaniy omillar ta’sirida yoki nutqqa bog‘liq holda gap mazmuni o‘zgarishi ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Pragmalinistika, kommunikativ, semantik, stilistik, konnotativ ma’no, frazeologik birlik.

ISSUES IN THE PRAGMATIC STUDY OF COLOR-COMPONENT PHRASEOLOGICAL UNITS

Annotation

This article provides a comprehensive analysis of the semantic, stylistic, and pragmatic aspects of color-based phraseological units. It explores the national-cultural meaning conveyed by color terms, their emotional and expressive impact in speech, and their communicative functions. From pragmalinguistic perspective, the study examines connotative meanings of color-related idioms and the ways in which their interpretations may shift under the influence of socio-cultural factors or depending on the communicative context. The article highlights the role of color phraseological units in creating imagery, expressing evaluation, and conveying the author’s communicative intent.

Key words: Pragmalinguistics, communicative, semantic, stylistic, connotative meaning, phraseological unit.

ПРОБЛЕМЫ ПРАГМАТИЧЕСКОГО ИЗУЧЕНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ С ЦВЕТОВЫМ КОМПОНЕНТОМ

Аннотация

В данной статье комплексно анализируются семантические, стилистические и прагматические аспекты фразеологизмов с цветовыми компонентами. Рассматриваются национально-культурное содержание цветообозначений, их эмоционально-экспрессивное воздействие в речи и коммуникативные функции. С позиций прагмалингвистики исследуется коннотативное значение цветových идиом, а также изменение их смысла под влиянием социально-культурных факторов или в зависимости от речевой ситуации. Статья выявляет роль цветových фразеологических единиц в создании образности, выражении оценки и передаче коммуникативного замысла автора.

Ключевые слова: Прагмалингвистика, коммуникативный, семантический, стилистический, коннотативное значение, фразеологическая единица.

Kirish. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Ch. Pris, U.U. Djems, Dyun, Ch. Morris [2] asarlarida o‘rtaga tashlangan pragmatik yo‘nalish g‘oyalari keying yillarda yanada rivojlantirildi. Jumladan, o‘zbek tilshunosligida o‘tkan asrdan boshlab pragmatik tadqiqotlarga qo‘l urildi va bu yo‘nalishda A.Nurmonov [4], Sh.Safarov [7], M.Hakimov [3]ning pragmatikaga oid ilmiy ishlari va tadqiqotlari yuzaga keldi. “Pragmalinistika tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishi sifatida o‘tkan asrning 60-70-yillarida shakllandi” [7]. Pragmatika bo‘yicha ishlayotgan olimlar uchun juda qiziqarli ma‘lumot sifatida takliflarning ko‘pchiligi ajdodlarimizga ma‘lum bo‘lgan oddiy “kodlash-dekodlash” kommunikatsiya modeliga asoslanganligini keltirish mumkin. Bu qarashga Piker va Bloom (1990) tomonidan ilgari surilgan nazariya ham asos hisoblanadi. Ammo bu model juda bahs-munozarali, negaki tilda faqatgina kodlash-dekodlash tizimi bo‘lganida, insonning bugungi inferensial muloqoti paydo bo‘lishi qiyin bo‘lardi. Shuni aytish joizki, ko‘plab nazariyalar nafaqat tining o‘ziga xosligini, balki uni nutqda qanday ishlatishimizni ham tushuntirishga harakat qiladi. Insonlar bir-biri bilan o‘zaro muloqot jarayonida bir vaqtning o‘zida turli darajadagi niyatlarni ifodalaydi va tushunadi.

Pragmalinistika va sotsiolingvistika yo‘nalishlarining kesishuvchi nuqtalari talaygina. Bu sohalar shu darajada yaqinki, hatto ayrimlar pragmatikani hozirgacha sotsiolingvistikaning alohida bir qismi sifatida ta’riflab kelmoqdalar. Shu bilan birgalikda, pragmalinistikaning tadqiq huquqiga ega ekanligi bois tadqiqotlarda alohida maqsad va vazifalar ko‘zlanishini hech kim inkor etmaydi. “Mustaqillik huquqiga erishgan pragmatika sotsiolingvistika bilan qarishdoshlik rishtalarini uzgani yo‘q va bu rishtalar yangi shakllanayotgan sotsiopragmatika va etnosotsiopragmatikani oziqlantirib turibdi” [1].

Frazeologizmning boshqa hodisalardan farqlangan holda lug‘aviy ma’no anglatuvchi birlik sifatida, uning semantik hodisa ekanligini tan olamiz. Haqiqatdan ham iboralarning mohiyatini, uning boshqa til hodisalaridan farqini uning aynan shu tomoni belgilaydi. Lingvistik nuqtai nazardan, rang nomlari nafaqat predmetning xususiyat va belgilarini bildiruvchi leksik birlik, balki, rang emotsional holatni, milliy qadriyatlarini baholash kabi ko‘plab qo‘shimcha ma’no-mazmuni ifodalovchi muhim kategorik birlik hisoblanadi. Rang komponentli frazeologik birliklar ham o‘z navbatida keng qamrovli mazmunga ega bo‘lgan konnotativ birlik sanaladi. Rangga oid idiomalarning pragmatik

xususiyatlarini o'rganish deganda ushbu idiomalarning kimga, qaysi holatda, qanday vaziyatda va qanday maqsadda aytilganda gap mazmunining o'zgarishini chuqur tahlil qilish tushuniladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda frazeologik birliklar, xususan, rang komponentli idiomalar va ularning nutqiy jarayondagi semantik, stilistik hamda pragmatik xususiyatlari tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilinmoqda. Ranga oid frazeologizmlar turli tillarda milliy-madaniy tafakkur, emotsional baholash va kommunikativ ta'sir vositasi sifatida tahlil qilinib, uning farqli tomonlari yoritib berilgan.

Bazarbaeva Albina Mingalieva o'zining ilmiy ishida ranglarning kognitiv semantik tuzilishini ingliz, rus va o'zbek tillarida qiyoslangan. Olima o'zining tadqiqot ishida frazeologizmlar tarkibidagi rang komponentini turli xalqlar madaniyatidagi o'zni va bir-biridan farq qiluvchi lingvomadaniy xususiyatlari haqida hamda rang konseptining inson hayotidagi, madaniyat va tafakkur formulasiidagi o'zni haqida qimmatli fikrlar bildirib o'tgan [10].

Козлова Наталья Николаевна “Когнитивный механизм метафоризации цвета: на материале фразеологизмов с колоративами green/зеленый” mavzusidagi ilmiy ishida ranglarni lingvistik tahlil qilganda uchraydigan muamoli vaziyatlar va ularning ma'qbul yechimlarini o'rgangan. Shuningdek, inson ongida “yashil” rang komponentli frazeologizmlarning kognitiv siljish masalalari va bunday til birliklarining metaforik mexanizmi, kognitiv aspektidagi kategorial xususiyatlari izchil ochib berilgan [11].

Ranga oid yana bir tadqiqot ishi Prachenko Oksana Vladimirovna tomonidan yozilgan bo'lib, u “Rus, ingliz, ispan va portugal tillarida rang komponentiga ega frazeologik birliklar” deb nomlangan. Olim o'zining ilmiy ishida rangni anglatuvchi frazeologik birliklar va ularning turlari, etimologiyasi, tasniflash mezonlari, haqida atroflicha fikr yuritgan. Ahamiyatli jihati shundaki, O.V.Prachenko ishida rus, ingliz, ispan va portugal tillarining izomorfik va allomorfik jihatlari tizimli ravishda ochib bergan [6].

Bugungi kunga qadar, ko'plab olimlar tomonidan rang komponentli frazeologizmlar turli rakurslarda o'rganilgan bo'lsa-da, bunday til birliklarining pragmatik aspekti halihamon yetarlicha o'rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology).

Mazkur maqolaning nazariy qismini boyitishda mavzuga oid ilmiy maqola va tezishlardan, ilmiy adabiyotlardan foydalanildi. Amaliy qismini yozish jarayonida “Oxford Dictionary of Idioms” lug'ati asos qilib olindi. Badiiy asarlar ichidan Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romanidan parchalar olindi. Maqolani yozish jarayonida ilmiylik, aniqlilikka e'tibor qaratildi.

Tahlil va natijalar. Ma'lumki, birliklarning nutqdagi ta'siri va maqsadini, emotsional ohangi va muloqotdagi vazifasini pragmatika o'rganadi. Rang komponentli frazeologizmlarning pragmatik xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan tahlillarimizni rangning aynan quyidagi turlari yuzasidan olib bordik:

White (oq): Barcha turli komponentli frazeologizmlar kabi oq rang komponentli frazeologizmlar nafaqat denonativ balki, konnotativ ma'nolarni ham hosil qiladi.

A WHITE ELEPHANT – Idiomatik ma'nosi: keraksiz, foydasiz narsani anglatadi. Asosan, bekorchi va qimmat loyhalar va sovg'alarga nisbatan ishlatiladi:

“This building project has become a white elephant” [8].

Mazkur frazeologizmi nutqida ishlatgan so'zlovchi tinglovchini bevosita tanqid qilmaydi, balki bu idioma orqali yumshoq tanqid qiladi. Kimnidir xafa qilmaslik uchun birdan “keraksiz, samarasiz” deb aytmay, balki bu frazeologizm orqali fikrini yumshoq tushuntiradi. Tahlillarimizda a white elephant frazeologizmining foydalanish rakursini yanada kengaytirgan holda uni insonlarga nisbatan ham ishlatish mumkinligini ko'rsatdi:

“There is no use keeping his place any more. He has become a white elephant for the company” [8].

Kontekstda shu ma'lum bo'ldiki, tashkilot uchun manfaat keltirmaydigan ishchini ishda saqlab qolishdan hech qanday foyda yo'q. Quyidagi gapni leksik birlikdan foydalanib tuza, muloqotda biroq qo'pollik yuzaga kelishi mumkin:

“He has become a redundant person” [8].

WHITE AS A GHOST/ SHEET - odamning qo'rquvdan, hayajondan, shokdan yoki kasallikdan yuzi oqarib ketgan holatini ifodalash uchun ishlatiladi. Bu frazeologizm pragmatik nuqtai nazardan qo'rquvning kuchli darajada ekanini ifodalaydi:

“She walked in looking white as a ghost” [8].


Mazkur rang komponentli frazeologizm tinglovchi ko'z ongida so'zlovchining holati haqida yanada aniqroq tasavvur paydo bo'lishiga yordam beradi.

HAVE THE BLUES – Ingliz tilidagi idiomatik ifoda bo'lib, xafa bo'lish, tushkun kayfiyatda bo'lish, ruhiy past holatni ifodalaydi. Pragmatik nuqtai nazardan kuchli depressiyani emas, balki vaqtinchalik emotsional holatni anglatadi. Misol uchun, mazkur ibora orqali so'zlovchi “I am sad” jumlasining yumshoqroq va ijtimoiy maqbul shaklini beradi:

“I have been the blues lately” [8].

Ma'lum bir rang turli millat vakillari tomonidan turli hayot jabhalarida: ijtimoiy va maishiy rakurslarda ma'lum ma'noda qo'llaniladi. Hattoki, bir millat tomonidan rangning idrok etilishi va tushunilishi har xil bo'lishi mumkin. Aniqroq qilib aytganda, rang kimgadir yoqishi, boshqasiga esa xush kelmasligi mumkin; kimdir uchun u xush kayfiyat beruvchi, boshqalar uchun hattoki asabga teguvchi hissiyot berishi mumkin.

Tadqiqot ishimiz bevosita ranglar paradigmasi bilan bog'liq bo'lganligi bois, mazkur tushuncha haqida ma'lumot berishdan oldin paradigma terminiga to'xtalib o'tishni joiz deb topdik. “Paradigma - biror sohaga oid nazariyalar, tushunchalar tizimi bo'lib, u olamni idrok qilish va tushunishning asosiy usuli hisoblanadi. Paradigma muayyan vaqt va madaniyat uchun qabul qilingan bilimlar yig'indisi, qadriyatlar va metodlar jamlanmasining o'zaro bog'liq majmuasidir. Ushbu tushuncha ilmiy, madaniy, falsafiy sohalarida keng qo'llaniladi” [1]. Ranglar paradigmasi esa ranglarning madaniy, psixologik va ilmiy nuqtai nazardan anglash hamda talqin qilishning o'ziga xos tizimini bildiradi. Mazkur yondashuv ranglarning inson hayotidagi funksional o'rni, ijtimoiy ahamiyati va ma'daniy-estetik qiymatini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Til tizimida rang bildiruvdi leksemalar muhim semantik va o'ziga xos leksik xususiyatlarga ega bo'lib, ularning qo'llanishi va ma'no doirasi har bir tilda turlicha namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, ingliz va o'zbek tillarida ham ranglar paradigmasining shakllanishi ushbu tillarning lingvistik tuzilishi, madaniy qadriyatlarini hamda milliy konseptual olamini aks ettiruvchi muhim hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur tillar kesimida ranglar paradigmasini quyidagi chizma orqali yanada aniqroq ifodalash mumkin:



1-rasm. Ingliz va o'zbek tillarida ranglar paradigmasi

Rang nomlari har bir tilda leksik-semantik tizimning muhim qatlami tashkil etadi. Ularni paradigmatic nuqtai nazardan o'rganish rang leksemalarining sinonimik, antonimik hamda polisemik xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Har ikki tilda rang nomlari faqat denotativ ma'noni emas, balki keng ko'lamli konnotativ, madaniy, va pragmatik mazmunlarni ham ifodalaydi. Masalan, "oq" leksemasining asosiy ma'nosi "spektrdagi eng yorug' rang"ni anglatadi. Mazkur leksemaning bir qancha ko'chma ma'nolari bo'lib, ularni quyidagicha ifodalash mumkin: a) poklik, sof niyat – oq ko'ngil, oq niyat; b) halollik – oq yo'l, oq pul; c) yengillik,

masaffolik – oq tong, oq kun; d) hurmat, ehtimol (arxaik) – oq suyak [10]

Rang nomlari nutqda bir necha kommunikativ funksiyani bajaradi. Rang nomlarining pragmatik xususiyatlari ularning lug'aviy ma'nosidan tashqari idiomatik jihatlarini ham aks ettiradi. Aynan shuning uchun ham ular tilning eng boy pragmatik resurslaridan biri hisoblanadi. Quyida chog'ishtirilayotgan tillardagi oq rang komponentli frazeologizmlarni solishtirish orqali ularning lug'aviy va pragmatik ma'nolarining o'xshash hamda farqli jihatlarini jadval asosida ochib berishga harakat qilamiz:

Til	Misol	Lug'aviy ma'no	Pragmatik ma'no
Ingliz tili	White lie	Oq yolg'on	Zarar qilmaydigan, vaziyatni yumshatishga qaratilgan yolg'on
Ingliz tili	White magic	Oq sehr	Ezgulik, foydali sehr, ijobiy baho
O'zbek tili	Oq ko'ngil	Sof ko'ngil	Samimiylik, poklik, ishonch
O'zbek tili	Oq yo'l	Oq rang+ yo'l	Ezgulik tilash, duo qilish, ijobiy munosabat

2-rasm: Ingliz va o'zbek tillaridagi oq rang komponentli frazeologizmlarning lug'aviy va pragmatik ma'nolari

Struktur jihatdan rangni ifodalovchi sifat leksemalar juda ko'p frazeologik, idiomatik iboralar, maqol va matallar tarkibida qo'llanilib, ko'chma va qo'shimcha ma'nolar kasb etadi hamda pragmatik hodisani yuzaga keltiradi. Masalan, "...oppoq yuzlari paxtadek yumshoq" – ushbu frazema beqiyos go'zal, nihoyatda dilrabo ayollarni tasvirlashda ijobiy ma'no kasb etadi. Rang komponentli frazeologizmlar til tizimida nafaqat leksik birlik sifatida, balki madaniy-ma'naviy tajribani ifodalovchi pragmatik vosita sifatida muhim o'rin tutadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rangga oid frazeologik birliklarning mazmuni ko'pincha ularning milliy-madaniy konnotatsiyasi, ijtimoiy vaziyati, nutq konteksti va kommunikativ maqsadi bilan bevosita bog'liqdir. "Rang nomlari orqali yuzaga keladigan frazeologizmlar muloqot jarayonida baho berish, obraz yaratish, emotsional ta'sir ko'rsatish, kinoya, metafora va assotsiatsiya singari nutqiy strategiyalarni kuchaytiradi manosi qo'llaniladi" [5].

A.Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanida rang nomlari keng frazeologik va idiomatik birliklar tarkibida ko'chma ma'noda qo'llanilib, muayyan pragmatik effektini yuzaga keltiradi. Rangga oid iboralar asarda nafaqat tasviriy vosita sifatida, balki qahramonlarning xarakteri, ruhiy holati, ijtimoiy mavqei yoki emotsional holatini ifodalovchi pragmatik vazifasini ham bajaradi. Asarda muallif "oq bilak qiz" iborasi tashqi ko'rinishiga haddan ziyod e'tibor beradigan, olifta yoki tannoq xotin-qiz obrazini yaratish uchun qo'llaydi. Bu yerda "oq" komponenti nafaqat rangi oq teri ma'nosini, balki noziklik, erka tarbiya kabi qo'shimcha semantik-pragmatik konnotatsiyalarni ham yuzaga chiqaradi. "Qora qo'l" birikmasi esa qo'li tegsa buzadigan, harakatida natija bo'lmaydigan shaxsni tasvirlaydi. Frazeologizm tarixidagi "qora" komponenti noqobil, yaramas, salbiy kuchga ega bo'lgan degan pragmatik xusiyat bilan boyigan. Muallif qahramonning amaliy oqizligini yoki beqarorligini kinoyaviy

ohangda ko'rsatadi. "Rangi sarg'aygan" iborasi betob, holdan toygan holatni ifodalaydi. Mazkur frazeologizm tarkibidagi "sariq" leksemasi "inson yuzining kasallik orqali oqarib-sarg'ayish belgisining vizual modeli sifatida ishlatiladi. Bu iboraning pragmatik vazifasi insondagi kasallik holatining jiddiyligini, qahramonning zaiflashganini tinglovchiga tezda yetkazishdan iborat" [9]. Umuman olganda, "O'tgan kunlar" asarida rang komponenti ishtirokidagi frazeologik birliklar stilistik, pragmatik va kognitiv modellarning shakllanishiga xizmat qiladi. Ranglar orqali yaratilgan obrazlar o'quvchi ongida turli emotsional-assotsiativ tasavvurlar uyg'otadi, kommunikativ jarayonda muallifning bahosi, munosabati va estetik pozitsiyasini yetkazadi.

Xulosa. Shunday qilib, rang nomlari frazeologik birliklar tarkibida konnotativ ma'no, emotsional-ekspressiv yuk, madaniy-kontekstual ma'lumot va kommunikativ niyatni birlashtiruvchi semantik-pragmatik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Rang komponentli frazeologizmlar til tizimida nafaqat leksik birlik sifatida, balki madaniy-ma'naviy tajribani ifodalovchi pragmatik vosita sifatida ham muhim o'rin tutadi. Xulosa o'rmda ta'kidlash joizki, rangga oid frazeologik birliklarning mazmuni ko'pincha ularning milliy-madaniy konnotatsiyasi, ijtimoiy vaziyati, nutq konteksti va kommunikativ maqsadi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Demak, rang frazeologik birliklar tarkibida:

- rang emotsional –ekspressiv yuklamaga ega;
 - rang ijobiy/salbiy baho beradi;
 - rang madaniy stereotiplarni aks ettiradi;
 - rang ijtimoiy ma'nolarni uzatadi;
 - rang kontekstga bog'liq ravishda ma'nosi o'zgartiradi.
- Rang nomlari orqali yuzaga keladigan frazeologizmlar muloqot jarayonida baho berish, obraz yaratish, emotsional ta'sir ko'rsatish, kinoya, metafora va assotsiatsiya singari nutqiy strategiyalarni kuchaytiradi.

ADABIYOTLAR

1. Abelfazova, M. Ranga oid leksemalarning paradigmasi. Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences. 2024. 3(22), B. 51–55.

2. Baymanov X.A. Inson xarakteriga xos sifat leksemalarning funksional-semantik xususiyatlari (nemis va o'zbek tillar misolida). Diss....avtoref. f.f.f. dok. (PhD). – Toshkent. 2020. – 56 b.
3. Hakimov M. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol.fan.d-ri ...dis avtoref. – Toshkent. 2001. – 56 b.
4. Nurmonov A. Ko'makchili konstruksiyalar presuppozitsiya aspekti // O'zbek tili va adabiyoti. – 1986. – №6. – B 42-45;
5. Petrov V.V. Filosofiya, semantika, pragmatika // Novoye v zarubejnoj lingvistike. – M., 1985. – 471 b.
6. Праченко, О. В. Фразеологические единицы с колоративным компонентом в русском, английском, испанском и португальском языках. Казань 2004, -24 с
7. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008. – 318 b.
9. Siefring J. Oxford Dictionary of Idioms. – Oxford University press: Second edition. 2004. – 352 p.
10. Tojimatov H. Sifat sememasining reallashuvida kontekst. filol. fan. nom. diss. Toshkent, 2008. – 156 b.
11. Базарбаева А.М. Инглиз, ўзбек ва рус тилларида ранг ифодаланишининг когнитив-семантик тузилиши. Автореф. дис....канд. филол. наук. – Т.: 2019. – 56 б.
12. Козлова Н. Когнитивный механизм метафоризации цвета: на материале фразеологизмов с колоративами green/зеленый. Иркутск, 2010., 174 с
13. www.ziyouz.com